

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA SINIF RAHBARLARI FAOLIYATINI
TASHKIL ETISHGA INNOVATSION YONDASHUV

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7881666>

A.A. Karimov

NamDU M-TMB-AU-21 guruhi 2-bosqich magistranti

Q.O. SHodmanov

Ta'lim menejmenti kafedراسi mudiri, p.f.n., dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida zamonaviy sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etishga innovatsion yondashuv va bunda sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmun ekanligi to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Umumiy o'rta ta'lim maktablari, ta'lim-tarbiya jarayoni, sinf rahbarlari faoliyatini tashkil etish, innovatsion yondashuv, innovatsion texnologiyalar, pedagogik texnika, pedagogik mahorat.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются инновационные подходы к организации деятельности современных классных руководителей в общеобразовательных школах и то, что деятельность классного руководителя многогранна и содержательна.*

Ключевые слова: *Общеобразовательные школы, образовательный процесс, организация деятельности классных руководителей, инновационный подход, инновационные технологии, педагогическая техника, педагогическое мастерство.*

Annotation: *This article discusses innovative approaches to organizing the activities of modern class teachers in secondary schools and the fact that the activities of a class teacher are multifaceted and meaningful.*

Keywords: *General education schools, educational process, organization of class teachers, innovative approach, innovative technologies, pedagogical technique, pedagogical skills.*

Hozirgi kunda Respublikamizda mavjud imkoniyatlar aholining ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini asta-sekinlik bilan echishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa, yoshlarimizga g'amxo'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor berib kelinmoqda. YOshlardagi shijoat va intilishni alohida pedagogik muammo sifatida o'rganish esa ularni hayotga tayyorlash jarayonini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, tarbiya jarayoni va uning natijasi ishning qay darajada tashkil etilganligi va undan keladigan samaraga bog'liqdir. Umumiy o'rta ta'lim maktabi sinf rahbari o'z faoliyatida tarbiya ishini sinf miqyosida xal etishda istiqbolni tasavvur eta olsa, kelajakni ko'ra bilish mahoratiga ega bo'lsagina, u muvaffaqiyat bilan ishlay oladi.

Hozirgi kunda mehnatni ilmiy asosda tashkil etish davrning muhim talabi bo'lib qolmoqda. SHu boisdan ham sinf rahbari o'z faoliyatini tashkil etishda quyidagi talablarga rioya qilmog'i kerak:

❑ o'z faoliyatida tarbiyaning umumiy maqsadini hisobga olgan holda shu kun uchun muhim bo'lgan aniq maqsadni belgilash;

❑ o'quvchilar jamoasining xususiyatidan kelib chiqadigan vazifalarni tushuntirish;

❑ tarbiyaning umumiy qonuniyatlari va tamoyillarini, o'quvchilarga ta'sir etishning shakli, usuli hamda vositalarini yaxshi bilish;

❑ o'quvchilar sinfini idora qilish qoidalari va jamoani rivojlantirish qonunlarini bilish kabilar.

Tarbiyada ijod qilmay ishlash mumkin emas. Agar sinf rahbari o'z ishidagi har bir qadamining pedagogik ma'nosini yaxshi bilsa, u o'quvchilar qalbining muhandisiga aylanadi, aks xolda esa oddiy bir hunarmand kabi bo'lib qoladi xolos.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili davomida nimalar qilish kerakligi, o'quvchilar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini amalga oshirishini bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni echadi. SHu bilan birgalikda bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning dunyo ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi, demokratiyalash va insonparvarlashtirish jarayonlarining rivojlanishi ta'lim jarayonida innovatsion yondashuv zarurligini taqozo etmoqda.

Innovatsiya (inglizcha – innovation) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash, o'zaro harakat qilmoq deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarni birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinf rahbarining pedagogik faoliyati va mahorati o'quv faoliyatida ham, o'qishdan tashqari faoliyatda ham zarur bo'lgan umumiy pedagogik malakalar yig'indisidan tashkil topadi.

Avvalo, pedagogik texnikaning tarkibiy qismi sifatida pedagogning nutq malakalarini, ya'ni savodli gapirish, o'z fikr va his-tuyg'ularini so'zda aniq ifodalash malakalarini aytib o'tish mumkin.

Pedagogik texnikaning boshqa tarkibiy qismi sinf rahbarining mimik va pantomimik ifodaliligidir. Aniq imo-ishora, ma'noli qarash, rag'batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum pedagogik ta'sir ko'rsatishda ko'p so'zli tushuntirish yoki e'tiroz bildirishga qaraganda ancha samarali muomala vositalari hisoblanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida pedagogik o'zaro ta'sir ko'rsatishda sinf rahbarining o'z hissiy holatini boshqarish, o'zida eng qulay hissiy jiddiylik darajasini

va umidbaxshlik, xayrixohlik kayfiyatini saqlash, o'zining hissiy dam olishini tashkil etish mahorati muhim rol o'ynaydi. Bu mahorat pedagogning kasbiy jihatdan o'zini-o'zi nazorat qilishini ta'minlaydi. Ko'p yillar davomida sog'lom asab tizimini saqlab qolish, asabiy buzilishlardan, hissiy va aqliy zo'riqishdan o'zini tiyishga yordam beradi.

Samarali o'zaro ta'sir ko'rsatishni tashkil etish uchun pedagog aktyorlik va rejissyorlik mahorati tarkibiy qismlarini egallashi zarur, ular pedagogga tarbiyalanuvchilar bilan muomala qilishda tarbiyalanuvchilarning aql-idrokigagina emas, balki ularning his-tuyg'ulariga ham ta'sir ko'rsatishga yordamlashadi.

SHunday qilib, sinf rahbarining pedagogik texnikasi – bu shunday bir malakalar yig'indisidirki, u sinf rahbariga tarbiyalanuvchilar ko'rib va eshitib turgan narsalar orqali ularga o'z fikrlari va qalbini etkazish imkonini beradi. Pedagogik texnikani egallashning asosiy yo'llari pedagog rahbarligidagi mashg'ulotlar (pedagogik texnikani o'rganish) va mustaqil ishlash (kasbiy jihatdan o'zini-o'zi tarbiyalash)dir. Pedagogik texnika malakalarining individual-shaxsiy tusda ekanligini hisobga olib, pedagogik texnikani egallashda va uni takomillashtirishda kasbiy jihatdan o'zini-o'zi tarbiyalash, ya'ni o'quvchining o'zida mohir pedagog shaxsiy fazilatlarini va kasbiy malakalarini shakllantirishga qaratilgan faoliyat etakchi rol o'ynaydi, deb aytish mumkin.

Sinf rahbari duch keladigan pedagogik vaziyatlarning haddan tashqari xilma-xilligi pedagogdan ijodiy xulq-atvorni talab qiladi. Pedagogik texnika pedagog malakalarining eng yaxshi ijodiy xulq-atvoriga, boshqacha qilib aytganda, har qanday pedagogik vaziyatda tarbiyalanuvchilarga samarali ta'sir ko'rsatishga yordam beradi.

Pedagogik mahorat fahm-farosat va bilimlarning, chinakam ilmiy, tarbiyadagi qiyinchiliklarni engishga qodir bo'lgan nufuzli rahbarlikning, o'quvchi qalbining qandayligini his qilish mahorati, ichki dunyosi nozik va zaif bo'lgan o'quvchi shaxsiga mohirlik bilan avaylab yondoshishi, donolik va ijodiy dadillik, ilmiy tahlil, xayol va fantaziyaga bo'lgan qobiliyat majmuasidir. Pedagogik mahoratga pedagogik bilimlar, fahm-farosat bilan bir qatorda pedagogik texnika sohasidagi malakalar ham kiradiki, ular tarbiyaga ozroq kuch sarflab, ko'proq natijalarga erishish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat o'ziga o'quvchilar haqidagi, ularning psixologiyasi to'g'risidagi, ta'lim muassasasi haqidagi, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning mazmuni, metodlari haqidagi keng bilimlarni qamrab oladi. Bu bilimlar umumiy pedagogik madaniyatni tashkil etadi, pedagog, tarbiyachi bu madaniyatni egallamasa, hech vaqt o'z ishining chinakam ustasi bo'la olmaydi, eski usuldan, bir qolipdagi tayyor andazalarni ishlatishdan nariga o'tmaydi.

Biroq umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi zamonaviy sinf rahbariga birgina umumiy madaniyatning o'zi kifoya qilmaydi – maxsus bilimlar va malakalar: o'quvchilarni kuzatish, ularning o'sishidagi muhim narsalarni aniqlay olish, bu muhim narsalarni jamiyatda vujudga kelgan asosiy ijtimoiy g'oyalar bilan taqqoslash, ularni rivojlantirish yo'llari va usullarini aniqlash, turli vositalar, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish usullarining o'zaro bir-biriga o'tish dialektikasini chuqur tahlil qilish, pedagogik izlanishlar va yutuqlarni ilmiy jihatdan bir tizimga solish malakalari zarur bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi sinf rahbari yangi tajribalarni, innovatsiyalarni o'rganar ekan, o'zining hayotiy bilimini, his etgan va anglagan narsalarini, o'z tajribasini aslo kamsitmasligi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turg'unov S.T. Uluqov N.M., SHodmanov Q.O., Maqsudova L.A.. Ta'lim muassasalarida boshqaruv. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan. – 2008 y.
2. SHodmanov Q.O., Xatamova R.Z. Ta'lim sifatini ta'minlashda innovatsion menejmentning o'rni va ahamiyati. NamDU ilmiy axborotnomasi, 2021 yil maxsus son, 789-794-betlar.
3. Rahimov M., & Shodmanov Q. (2022). Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishga asosiy yondashuv texnologiyalari. Eurasian Journal of Academic Research, 2(13), 1267–1271. izvlecheno ot <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/7932>
4. Ismoilov N.A., Shodmanov Q.O. Professional ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlar tahlili. International scientific journal "Science and innovation" ISSN: 2181-3337. Series B Volume 1 Issue 8 December 2022, 859-864 b.